

## “Ichan qal’a muzeyi qo’riqxonasi”da termitlarga qarshi profilaktik tadbirlar o’tkazildi

Ichan qal’a muzeyi qo’riqxonasida termitlar rivojlanishi bo’yicha kuzatuvlar olib borilib, monitoring natijalariga ko’ra termitlar bilan zararlanishga moyil bo’lgan tosh hovli muzeyining hunarmandchilik bo’limi, Juma masjid kabi obyektlarda atmosfera havosi namligini kamaytirish ishlari va biologik yem-xo’rak qo’llanildi.



Kimyoviy va biologik preparatlar samaradorligi va kurash usullari ko’rsatib berildi. Ilmiy ish doirasida termitlar malikasi rivojlanish ehtimoli yuqori bo’lgan binoning ostki qismini dorilash usullari ishlab chiqildi va termitlar xush ko’rib yeydigan ferula o’simligi yordamida yem-xo’rak ishlab chiqildi. Bu yem-xo’rakni termitlarga qarshi kurashda samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar asosida Juma masjid muzeyida termitlar rivojlanish ehtimoli yuqori bo’lganligi sababli profilaktik tadbirlar sifatida biologik va kimyoviy ishlov berildi. Ichan qal’a dalat muzey qo’riqxonasi bilan termitlardan himoya qilish bo’yicha 39 mln so’mlik shartnoma tuzildi.